XALQ DEPUTATLARI ZOMIN TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 26-aprel VI-56-58-3-48-K/24 Zomin tumani

Tumandan Respublika xududidagi Oliy talim muassasalariga oʻqishga qabul qilingan talabalarning toʻlov kontrakt pullarini toʻlash uchun mablagʻ ajratish toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi 585-son qarori bilan belgilangan imtiyozlar va xotin-qizlarning taʼlim olishini moddiy jihatdan qoʻllab-quvvatlash toʻlov kontrakt pullarini toʻlash maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi “mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi qonunining 6-,“budjet kodeksi”ning 126-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Zomin tuman hokimi oʻrinbosari, tuman oil ava hotin-qizlar boʻlimi boshligʻi N.Omonovaning Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi 585-son qarori i ijro yuzasidan maʼruzasi maʼlumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman iqtisodiyot va moliya boʻlimi (D.Mamatqulov)ga tumandan Ijtimoiy ehtiyojmand oila vakillari, yetim yoki ota-onasining qaramogʻidan mahrum boʻlgan talaba xotin-qizlarning oliy taʼlim olishini moddiy jihatdan qoʻllab-quvvatlash yuzasidan tavsiyanoma berish boʻyicha tuman komissiyasining xulosasiga asosan Oliy talim muassasalariga oʻqishga qabul qilingan 1 nafar talaba xotin-qizlarning toʻlov kontrakt pullarini toʻlash uchun tuman mahalliy budjetining 2024 yil 1-chorak yakuni bilan hosil boʻlgan daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi mablagʻlari hisobidan 3 200 000 (uch million ikki yuz ming) soʻm mablagʻni tuman hokimligiga ajratish vazifasi topshirilsin.

3. Tuman hokimligi bosh hisobchisi v.v.b.E.Samandarovga ajratilgan mablagʻdan maqsadli foydalanish vazifasi topshirilsin.

4. Tuman iqtisodiyot va moliya boʻlimi (D.Mamatqulov)ga ajratilgan mablagʻlarning maqsadli foydalanilishi ustidan nazorat oʻrnatsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining “Taʼlim, sogʻliqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya, yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari boʻyicha” doimiy komissiyasi M.Azamqulova, tuman hokimining birinchi oʻrinbosari Z.Omonqulov hamda tuman hokimining oʻrinbosari N.Omonovalar zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi ABDUGANIYEV ALISHER MUXAMMADIYEVICH

Xalq deputatlari Zomin tumani Kengashining
2024-yil 26-apreldagi
VI-56-58-3-48-K/24 -son qaroriga
1-ilova

№	MFY va QFY nomi	F.I.Sh	Summasi	O‘qiyotgan Oliy ta’lim muassasasi nomi
1	Nixol MFY	Abdulatipova Zuxra Ortikboy qizi	3.200.000.00	Jizzax Politexnika instituti